Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 2 (2026) · “Milliy statistika tizimida yangi bosqich: barqaror rivojlanish maqsadlari, xalqaro standartlar va zamonaviy tende...

“MILLIY STATISTIKA TIZIMIDA YANGI BOSQICH: BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI, XALQARO STANDARTLAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR”

O‘ZBEKISTONDA INFLYATSIYA PROGNOZI VA BOSHQARUV CHORALARI

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti 3-bosqich talabasi
TURG’UNBOYEV JAVOHIR UCHQUN O’G’LI
javokhir7101@gmail.com
Tel: +998959299960
Ilmiy rahbar: katta o`qituvchisi
ZOKIROVA MUNISA JAMOLIDDIN QIZI
munisahusniddinova9@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada O‘zbekistonda inflyatsiya jarayonlarini tahlil qilish, uning sabablari va oqibatlarini aniqlash hamda samarali prognozlash usullarini ishlab chiqish masalalari yoritilgan. Unda davlatning inflyatsiyani boshqarishdagi monetar va fiskal siyosat choralariga alohida e’tibor qaratilgan. Shuningdek, inflyatsiya darajasini barqarorlashtirish, narxlar o‘sishini jilovlash va aholining real daromadlarini saqlab qolish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan. Maqola natijalari O‘zbekiston iqtisodiyotida barqaror narxlar siyosatini yuritish va makroiqtisodiy muvozanatni ta’minlashda amaliy ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so’zlar: *Inflyatsiya, pul-kredit siyosati, narxlar barqarorligi, monetar siyosat, fiskal siyosat, milliy valyuta, iste’mol bozori, makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar, inflyatsiya prognozi, statistik tahlil, valyuta kursi, narx indekslari.*

Аннотация: *В данной статье освещаются вопросы анализа инфляционных процессов в Узбекистане, выявления их причин и последствий, а также разработки эффективных методов прогнозирования. В нем особое внимание уделяется мерам монетарной и фискальной политики государства в управлении инфляцией. Также были разработаны предложения по стабилизации уровня инфляции, сдерживанию роста цен и сохранению реальных доходов населения. Результаты статьи приобретают практическое значение для проведения политики устойчивого ценообразования и обеспечения макроэкономического равновесия в экономике Узбекистана.*

Ключевые слова: *Инфляция, денежно-кредитная политика, стабильность цен, монетарная политика, фискальная политика, национальная валюта, потребительский рынок, макроэкономические показатели, прогноз инфляции, статистический анализ, обменный курс, индексы цен.*

Published: 05.06.2026

Cite this article: Turg’unboyev Javohir Uchqun o’g’li, Zokirova Munisa Jamoliddin qizi (2026). O‘zbekistonda inflyatsiya prognozi va boshqaruv choralari. Emro Science and Education, 2(2). https://journal.emro.uz/public/maqola/795

© 2026 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

“MILLIY STATISTIKA TIZIMIDA YANGI BOSQICH: BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI, XALQARO STANDARTLAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR”

Annotation: *This article covers the issues of analyzing inflation processes in Uzbekistan, determining its causes and consequences, and developing effective forecasting methods. In it, special attention is paid to the monetary and fiscal policy measures of the state in the management of inflation. Proposals have also been developed to stabilize inflation rates, curb price growth, and maintain real incomes of the population. The results of the article are of practical importance in maintaining a stable pricing policy and ensuring macroeconomic balance in the economy of Uzbekistan.*

Keywords: *Inflation, monetary policy, price stability, monetary policy, fiscal policy, national currency, consumer market, macroeconomic indicators, inflation forecast, statistical analysis, exchange rate, price indices.*

KIRISH

So‘nggi yillarda O‘zbekiston iqtisodiyotida olib borilayotgan islohotlar jarayonida inflyatsiya masalasi eng muhim makroiqtisodiy ko‘rsatkichlardan biri sifatida e’tibor markazida turibdi. Bozor mexanizmlarining bosqichma-bosqich shakllanishi, narxlarni liberallashtirish, milliy valyutaning erkin ayirboshlanishi va tashqi iqtisodiy aloqalarning kengayishi sharoitida inflyatsiya darajasini barqaror ushlab turish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan. Inflyatsiya – bu iqtisodiyotda narxlar darajasining umumiy va uzoq muddatli o‘sish jarayoni bo‘lib, u milliy iqtisodiyotdagi muvozanatni belgilovchi, aholi farovonligiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi murakkab iqtisodiy hodisadir. Shu sababli, inflyatsiya jarayonlarini chuqur tahlil qilish, uning omillarini aniqlash, prognozlash va boshqaruv choralarini ishlab chiqish O‘zbekiston uchun strategik ahamiyatga ega masalalardan biri sanaladi.

Inflyatsiyaning yuqori darajada bo‘lishi iqtisodiy barqarorlikka jiddiy tahdid tug‘diradi. Bu holat ishlab chiqarish xarajatlarining ortishiga, investitsion faollikning pasayishiga, aholining real daromadlari va iste’mol imkoniyatlarining kamayishiga olib keladi. Shuningdek, inflyatsiya darajasi ortgan sari milliy valyutaning qadrsizlanishi kuchayadi, bu esa import va eksport o‘rtasidagi muvozanatni buzadi hamda tashqi savdo balansiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan, inflyatsiyani boshqarish, ya’ni uni maqbul chegaralarda ushlab turish davlatning pul-kredit va fiskal siyosatini muvofiqlashtirish orqali amalga oshiriladi. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan inflyatsion targetlash rejimi bosqichma-bosqich joriy etilayotgani bu yo‘nalishda muhim qadam hisoblanadi. Mazkur rejimning asosiy maqsadi narxlar barqarorligini ta’minlash, iqtisodiy o‘sish uchun zarur bo‘lgan muhitni shakllantirish va aholining inflyatsion kutilmalarini boshqarishdan iboratdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-sonli Farmonida pul-

kredit, fiskal va tashqi savdo siyosatlarini o‘zaro muvofiqlashtirish hamda tovar va xizmatlar bozorida raqobat muhitini yaxshilashga qaratilgan tarkibiy islohotlarni davom ettirish orqali 2030-yilga borib yillik inflyatsiyani 5-6 foiz darajasida ta’minlashga qaratilgan. Bundan tashqari hukumatimiz tomonidan davlat xarajatlarini optimallashtirish, ijtimoiy yo‘naltirilgan subsidiyalarni qayta ko‘rib chiqish va raqobat muhitini kuchaytirish bo‘yicha ham islohotlar amalga oshirilmoqda. Bularning barchasi inflyatsiyani nazorat ostida ushlab turish, iqtisodiy o‘sishning barqarorligini ta’minlash hamda aholining xarid qobiliyatini saqlab qolishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

T.Trubnik va hammualliflar inflyatsiya jarayonlarini tahlil qilishda statistik yondashuvning ahamiyatiga urg‘u beradi. Uning fikriga ko‘ra, “inflyatsiya – bu iqtisodiyotdagi murakkab ijtimoiy-iqtisodiy hodisa bo‘lib, narxlar darajasining o‘sishi orqali aholining xarid qobiliyatiga, investitsion faollikka va iqtisodiy barqarorlikka bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun inflyatsiya jarayonlarini chuqur statistik tahlil qilish va ularning dinamikasini prognozlash iqtisodiy siyosatni samarali boshqarishning muhim omilidir”. Bunga asoslanib aytish mumkinki, inflyatsiya jarayonlarini baholashda ishsizlik, ishlab chiqarish hajmi, pul massasi va valyuta kursi kabi ko‘rsatkichlarning o‘zaro bog‘liqligini tahlil qilish mamlakatda narxlar barqarorligini ta’minlash hamda inflyatsion xavflarni kamaytirish uchun zarur hisoblanadi.

Mahalliy iqtisodchi olimlar ham inflyatsiya muammosini chuqur o‘rganib kelishmoqda. M.Xolmatov inflyatsiya darajasini tahlil qilishda statistik yondashuv va prognozlash modellarining amaliy ahamiyatini alohida ta’kidlaydi. Uning fikricha, “inflyatsiya jarayonlarini chuqur statistik tahlil qilish, xususan, vaqt qatorlari, regressiya va korrelyatsiya tahlillari yordamida, iqtisodiyotdagi narx o‘zgarishlarini aniq prognozlash imkonini beradi”. Bunga asoslanib aytish mumkinki, muallif inflyatsiya prognozining ishonchliligini oshirish uchun tarixiy ma’lumotlar va makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlashni muhim deb biladi. Unga ko‘ra, statistik prognozlash iqtisodiy siyosatning barqarorligini ta’minlashda muhim vosita hisoblanadi.

Mavjud ilmiy manbalar shuni ko‘rsatadiki, inflyatsiya faqat iqtisodiy emas, balki siyosiy va ijtimoiy hodisa sifatida ham ko‘rilishi zarur. Uni nazorat qilish uchun nafaqat markaziy bankning mustaqil siyosati, balki hukumatning soliq, budjet va ijtimoiy siyosatdagi qarorlari ham uyg‘unlashgan bo‘lishi kerak. Inflyatsiyani boshqarishning samaradorligi davlat institutlarining muvofiqlashgan faoliyati, bozorlardagi raqobat muhitining kuchaytirilishi, milliy ishlab chiqarishning o‘sishi va aholining iqtisodiy ongini oshirish bilan chambarchas bog‘liqdir.

TADQIQOT METOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot metodologiyasi O‘zbekistonda inflyatsiya jarayonlarini prognozlash va uni samarali boshqarish choralari tizimini ilmiy asosda tahlil qilishga yo‘naltirilgan. Tadqiqotda iqtisodiy tahlil, statistik modellashtirish, induktiv va deduktiv yondashuvlar, shuningdek, empirik kuzatuvlar asosida olingan ma’lumotlar qo‘llanildi. Bundan ko‘zlangan maqsad inflyatsiya darajasiga ta’sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash, ularning o‘zaro bog‘liqligini baholash va mavjud boshqaruv mexanizmlarining samaradorligini baholashdan iborat. Shu maqsadda Markaziy bank, Davlat statistika qo‘mitasi va xalqaro moliyaviy institutlarning ma’lumotlar bazasi tahlil qilindi. Dinamik qatorlar usuli, korrelyatsion-regression tahlil hamda ekonometriya modellari yordamida inflyatsiya prognozi shakllantirildi

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekiston iqtisodiyotida inflyatsiya jarayonlari so‘nggi yillarda muhim tahlil ob’ekti bo‘lib kelmoqda chunki narxlarning barqarorligi iqtisodiy o‘sish, ijtimoiy farovonlik va investitsion muhitning ishonchliligini ta’minlashda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Mamlakatimiz iqtisodiy tizimida inflyatsiya darajasining o‘zgaruvchanligi mamlakatimizning makroiqtisodiy barqarorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan asosiy omillardan biriga aylangan. Shu maqsadda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-sonli Farmonida pul-kredit, fiskal va tashqi savdo siyosatlarini o‘zaro muvofiqlashtirish hamda tovar va xizmatlar bozorida raqobat muhitini yaxshilashga qaratilgan tarkibiy islohotlarni davom ettirish orqali 2030-yilga borib yillik inflyatsiyani 5-6 foiz darajasida ta’minlashga qaratilgan. Shuning uchun inflyatsiya darajasini aniqlash, prognozlash va samarali boshqarish mexanizmlarini ishlab chiqish hozirgi davrda iqtisodiy siyosatning eng muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda.


O‘zbekistonning so‘nggi o‘n yillikdagi iqtisodiy rivojlanish dinamikasini tahlil qilganda, inflyatsiya darajasi 2017-2021-yillar oralig‘ida o‘tish davri islohotlari, milliy valyuta kursining erkinlashtirilishi, energiya resurslari narxining bosqichma-bosqich oshirilishi va pandemiya ta’sirida sezilarli darajada o‘zgarib turganini ko‘rish mumkin. 2025-yil yanvar-avgust oylarida mamlakatda umumiy inflyatsiya darajasi o‘tgan yilga nisbatan pasaygan. Bu holat, birinchi navbatda, 2024-yilda energiya narxlarining oshishi bilan bog‘liq ta’sir omillarining bu yil sekinlashgani bilan izohlanadi. O‘tgan yilda energiya resurslari narxining keskin o‘sishi xizmatlar sektori narxlariga kuchli bosim o‘tkazgan edi. Shu sababli 2024-yilda xizmatlar bo‘yicha inflyatsiya 22,2 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2025-yilda bu ko‘rsatkich 12 foizgacha kamaygan. Bu pasayish xizmatlar bozorida narx barqarorlashuvi va raqobat muhitining nisbatan yaxshilanishini bildiradi. Oziq-ovqat mahsulotlari bo‘yicha inflyatsiya darajasi esa o‘tgan yilga nisbatan biroz

“MILLIY STATISTIKA TIZIMIDA YANGI BOSQICH: BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI, XALQARO STANDARTLAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR”

oshgan. 2024-yilda oziq-ovqat inflyatsiyasi manfiy ko‘rsatkich –2,8 foiz bo‘lgan bo‘lsa, 2025-yilda u 1,3 foizni tashkil etdi. Buning sababi sifatida import qilinadigan oziq-ovqat mahsulotlari narxining biroz ko‘tarilishi hamda ichki bozorda ayrim mavsumiy yetishmovchiliklar keltiriladi. Nooziq-ovqat mahsulotlari narxining o‘sishi esa 2025-yilda 3,6 foiz bo‘lib, 2024-yildagi 4,7 foizdan pastroq shakllangan. Umuman olganda, inflyatsiya sur’atining 2025-yilda 4,5 foizgacha tushishi makroiqtisodiy muvozanatni saqlash va ichki bozorni barqarorlashtirish borasidagi chora-tadbirlar samaradorligini ko‘rsatadi. Ushbu o‘zgarishlarni quyidagi rasmda ko‘rishimiz mumkin (1-rasm).

1-rasm. 2025-yil yanvar-avgust oylaridagi inflyatsiya darajasi

Yuqoridagi rasmdagi ma’lumotlardan ma’lum bo‘ladiki, 2025-yilda O‘zbekiston iqtisodiyotida inflyatsiya jarayonlarining sekinlashuvi kuzatilgan. Eng muhim o‘zgarish xizmatlar sektorida ro‘y bergan bo‘lib, 2024-yildagi 22,2 foizlik yuqori inflyatsiya 2025-yilda 12 foizgacha tushgan. Bu holat hukumat tomonidan olib borilgan energetika narxlarini barqarorlashtirish siyosati, aholiga ijtimoiy kompensatsiyalar taqdim etilishi hamda tarif siyosatini qayta ko‘rib chiqish bilan




bog‘liqdir. Oziq-ovqat mahsulotlari bo‘yicha inflyatsiya manfiy ko‘rsatkichdan (–2,8%) ijobiy qiymatga (1,3%) o‘tgan. Bu esa import narxlarining o‘sishi va ayrim ichki ishlab chiqaruvchilarning xarajatlarining oshishi bilan izohlanadi. Nooziq-ovqat mahsulotlari narxlari esa 2024-yildagi 4,7 foizdan 3,6 foizgacha kamayib, bozor talab va taklif muvozanatining tiklanganini bildiradi. Umumiy inflyatsiya darajasining 2025-yilda 4,5 foizgacha pasayishi iqtisodiyotda narx barqarorligini ta’minlash borasida qator ijobiy natijalarni aks ettiradi. Markaziy bankning pul-kredit siyosati, fiskal barqarorlikni mustahkamlash va import bosimini kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlari umumiy narx darajasining o‘sishini jilovlashga xizmat qilgan.

O‘zbekistonda inflyatsiya darajasini bilish va uning pragnozi yanada takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston Markaziy banki tomonidan iste’mol savatchasidagi tovar va xizmatlarning inflyatsiyaga moslashtirilgan qiymatini hisoblash mumkin bo‘lgan inflyatsiya kalkulyatori ishga tushirilgan. U regulyator veb-saytining “Bosh sahifasi”da “Pul kredit siyosati” bo‘limida joylashtirilgan (2-rasm).

2-rasm. Inflyatsiya kalkulyatoriga qiymat kiritish holati

Mazkur kalkulyator yordamida ma’lum ixtiyoriy vaqt oralig‘ida inflyatsiyaning pul qiymatiga (sotib olish qobiliyatiga) ta’sirini baholash mumkin.



Buning uchun kerakli davr va pul miqdori tanlab olinadi, undan keyin iste’mol savatchasidagi tovar va xizmatlarning inflyatsiyaga moslashtirilgan qiymati hisoblanadi. Ma’lumotlar Statistika agentligi tomonidan hisoblangan iste’mol narxlari indeksining oylik hisoboti asosida taqdim etiladi. Shuningdek, kalkulyator belgilangan davr uchun quyidagi ma’lumotlarni hisoblaydi:

- yig‘ilgan inflyatsiya (foizda);
- davr uzunligi;
- o‘rtacha oylik inflyatsiya (foizda);
- o‘rtacha yillik inflyatsiya (foizda).

IQTISODIY STATISTIKA KAFEDRASI — Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Ushbu kalkulyator bilan 1999-yil dekabrdan 2025-yilning sentabr oyigacha bo‘lgan davrdagi inflyatsiya ko‘rsatkichini hisoblash mumkin. Masalan, 2023-yil sentabr oyidagi 100 ming so‘m 2025-yil sentabrda 119 ming 300 so‘mga aylangan. Bunda davr mobaynida yig‘ilgan inflatsiya (foizda), davr uzunligi, davr mobaynidagi o‘rtacha oylik va yillik inflatsiya (foizda) inobatga olinadi (3-rasm).

3-rasm. Inflyatsiya kalkulyatorining hisob-kitobi

Yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, inflyatsiya



kalkulyatori kelgusida ma’lumotlari asosida yanada chuqur iqtisodiy tahlillar o‘tkazish, hududiy farqlarni hisobga olgan holda inflyatsiyani prognozlash hamda real sektor faoliyatini rejalashtirish imkoniyatlari kengayadi. Bu esa O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror o‘sishi va aholining farovonligini oshirish yo‘lida muhim qadam bo‘lib xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, O‘zbekistonda inflyatsiya prognozi va boshqaruv choralari mamlakatning makroiqtisodiy barqarorligini ta’minlashda, aholi farovonligini oshirishda hamda moliyaviy tizimni mustahkamlashda muhim

o‘rin tutadi. Mazkur maqolada inflyatsiya jarayonlarining iqtisodiy mohiyati, uni prognozlashning ilmiy asoslari, boshqaruv choralarining samaradorligi va ularni amaliyotga tatbiq etish mexanizmlari tahlil qilindi. Tahlil natijalariga ko‘ra, inflyatsiyani barqaror me’yorda ushlab turish uchun faqat monetar omillarni emas, balki ishlab chiqarish, import, logistika, raqobat va fiskal siyosat omillarini ham kompleks yondashuv asosida ko‘rib chiqish zarur.

Mavzuga doir o‘rganilgan nazariy va amaliy yondashuvlar hamda tahlillar natijalari asosida quyidagi takliflarni shakllantirib oldik:

- **Inflyatsiyani prognozlashda zamonaviy tahlil modellari va raqamli texnologiyalarni qo‘llash kerak.** ARIMA, VAR, hamda mashinaviy o‘rganish modellari yordamida narx dinamikasini aniqlash va qisqa muddatli hamda o‘rta muddatli prognozlar aniqligini oshirish lozim;

- **Inflyatsiya kalkulyatorining amaliy imkoniyatlarini kengaytirish lozim.** Markaziy bank tomonidan joriy etilgan ushbu vositani hududlar, iqtisodiy tarmoqlar va tovar guruhlari bo‘yicha differensial hisob-kitob imkoniyatiga ega qilish, shuningdek, uni mobil ilova shaklida aholiga yanada qulay taqdim etish maqsadga muvofiq;

- **Inflyatsiya kutilmalarini boshqarish mexanizmlarini kuchaytirish kerak.** Aholi va tadbirkorlik subyektlari uchun Markaziy bankning kommunikatsiya siyosatini yanada ochiq, tushunarli va tizimli shaklda yo‘lga qo‘yish orqali iqtisodiy ishonchni mustahkamlash zarur.

- **Pul-kredit va fiskal siyosat o‘rtasida muvofiqlikni ta’minlash maqsadga muvofiq bo‘ladi.** Byudjet xarajatlari hajmini inflyatsion bosimni oshirmaydigan darajada saqlash, davlat xarajatlarining samaradorligini oshirish va soliq siyosatini barqaror yuritish inflyatsiyani jilovlashda asosiy omil bo‘ladi.

Foydalangan adabiyotlar ro’yxati:

1. G‘ulomov, A., Sultonov, R. Statistika asosLari. Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2019.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-sonli Farmoni.
3. M.Xolmatov. O‘zbekistonning valyuta siyosati va mintaqaviy tajriba. – T.: Fan va taraqqiyot, 2020. – 208 b.
4. Umarov A.N. O‘zbekiston bozor iqtisodiyotida ekonometrik modellarning qo‘llanilishi // “Raqamli iqtisodiyot” ilmiy-elektron jurnali. 2024, 10-son. 1055–1060-betlar.
5. O’zbekiston Respublikasi Milliy Statistika Qo’mitasi - https://stat.uz/uz/

6. O’zbekiston Respublikasi Markaziy banki - https://cbu.uz/

IQTISODIY
STATISTIKA KAFEDRASI
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti